

AXBOROT MUHITIDA BO`LAJAK PEDAGOGLARNING MANTIQUIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH

Rustamova Farangiz Jamshidovna

OSIYO XALQARO UNIVERSITETI magistranti

**Annotatsiya (O`zbek tilida):** Ushbu maqolada axborot muhitidan samarali foydalanish orqali bo`ljak pedagoglarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish masalasi yoritilgan. Raqamli texnologiyalar, interaktiv platformalar va innovatsion metodlar talabalarning tahliliy fikrlashini shakllantirishdagi o`rni ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari axborot muhiti pedagogik jarayonning sifatini oshirishi va mantiqiy fikrlashni faollashtirishini ko`rsatadi.

Аннотация (На русском языке): В данной статье рассматривается вопрос развития логического мышления будущих педагогов посредством эффективного использования информационной среды. Научно обоснована роль цифровых технологий, интерактивных платформ и инновационных методов в формировании аналитического мышления студентов. Результаты исследования показывают, что информационная среда способствует повышению качества учебного процесса и активизации логического мышления.

Abstract (In English): This article explores the development of logical thinking among future teachers through the effective use of the information environment. The study scientifically substantiates the role of digital technologies, interactive platforms, and innovative teaching methods in fostering students' analytical thinking skills. The findings indicate that the information environment enhances the quality of the educational process and stimulates logical reasoning.

**Kalit so`zlar:** axborot muhiti, bo`ljak pedagoglar, mantiqiy tafakkur, raqamli kompetensiya, ta`lim texnologiyalari, fikrlash jarayoni, pedagogik faoliyat, innovatsion metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), kognitiv rivojlanish.

Ключевые слова: информационная среда, будущие педагоги, логическое мышление, цифровая компетентность, образовательные технологии, процесс мышления, педагогическая деятельность, инновационно-коммуникационные технологии (ИКТ), когнитивное развитие.

Keywords: information environment, future teachers, logical thinking, digital competence, educational technologies, thinking process, pedagogical activity, innovative methods, information and communication technologies (ICT), cognitive development.

KIRISH

Zamonaviy ta`lim jarayoni axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bilan

bevosita bog`liq. Bo`lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi nafaqat fanlar bo`yicha bilimlarga, balki mantiqiy, tizimli, va tanqidiy fikrlash ko`nikmalariga ham tayanadi. Raqamli ta`lim muhitida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish dolzarb masala bo`lib, ta`lim samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Mantiqiy tafakkur- bu hodisa va jarayonlarni mantiqiy izchillikda tahlil qilish, xulosalar chiqarish, muammoli vaziyatlarni hal qilish, dalillarni solishtirish, va asoslash jarayonlarini qamrab oluvchi innellektual faoliyatdir. Axborot muhiti esa ushbu jarayonlarni chuqurlashtirish, mustaqil fikrlash imkoniyatlarini kengaytirish uchun keng ko`lamli sharoit yaratadi. Bo`lajak pedagoglar aynan shu muhitda o`quv jarayonini tashkil etish, analitik fikrlashni o`rgatish va interaktiv metodlardan samarali foydalanishlari talab etiladi. O`zbekiston ta`lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari kuchayib borayotgan bir paytda pedagogik kadrlarga qo`yilayotgan talablar ham ortib bormoqda. Mavzu bo`yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlar shuni ko`rsatadiki, axborot texnologiyalarini ta`lim jarayoniga joriy etish bo`lajak pedagoglarning mantiqiy tafakkurini shakllantirishda samarali omil bo`lib xizmat qilmoqda. Biroq axborot muhitidan foydalanishning metodik asoslari, didaktik, yondashuvlar va mantiqiy tafakkur rivoji o`rtasidagi uzviy bog`liqlik hali to`liq tadqiq etilmagan. Bu esa mavzuning ilmiy-amaliy ahamiyatini yanada oshiradi. Mazkur tadqiqot axborot muhitida bo`lajak pedagoglarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy asoslarini yoritish, mavjud metodikalarni tahlil qilish hamda samarali pedagogik shart-sharoitlarni ishlab chiqishga qaratilgan.

AXBOROT MUHITINING TA`LIMDAGI O`RNI

Axborot muhiti- bu ta`lim jarayonida raqamli resurslar, onlayn platformalar, elektron o`quv adabiyotlari, multimedia vositalari majmuasi.

Bunday muhit:

- o`quv jarayonining interaktivligini oshiradi;
- mustaqil ta`limni kuchaytiradi;
- tahliliy fikrlashni rivojlantiruvchi vazifalar yaratishga sharoit beradi.

Axborot muhiti o`quvchining fikrlash jarayonini faollashtiradi va muammoli vaziyatlar yaratish imkonini beradi.

AXBOROT MUHITIDA MANTIQIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

1. Interaktiv elektron resurslardan foydalanish

- *simulatsiyalar;
- *virtual laboratoriyalar;
- *algoritmik masalalar;
- *vizual mantiqiy grafiklar.

Bu resurslar o`quvchini faol fikrlashga undaydi.

2. Raqamli muammoli vaziyatlar yaratish.

Case-study, WebQuest, problem-based learning metodlari orqali talaba mustaqil tahlil qiladi va xulosaga keladi.

3. Mantiqiy operatsiyalarni shakllantiruvchi topshiriqlardan foydalanish

- * taqqoslash jadvallari;
- * sabab-oqibat zanjirlari;
- * kategoriyalarni tasniflash;
- * algoritmlash.

4. Raqamli platformalarda mantiqiy treninglar

Masalan:

- *LogicLike
- *GeoGebra
- *Moodle test modullari
- *Google Forms orqali tahliliy savollar.

5. AKT kompetensiyasini oshirish

Texnologiyalardan to'g'ri foydalana olgan pedagog mantiqiy tafakkurni rivojlantirish bo'yicha samaradorlikni sezilarli oshiradi

PEDAGOGIK SHART-SHAROITLAR

Maqsadga erishish uchun quyidagi shartlar zarur:

1. Raqamli ta'lim vositalarining mavjudligi.
2. Interfaol metodlardan doimiy foydalanish.
3. O'qituvchida metodik tayyorgarlikning bo'lishi.
4. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga undovchi muhit yaratish.

TADQIQOT NATIJALARI VA TAHLIL

Olib borilgan kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki:

-axborot muhitida ishlaydigan pedagog talabalar mantiqiy vazifalarni tezroq va aniqroq bajaradi;

-raqamli topshiriqlar talabalarning tizimli fikrlashini kuchaytiradi;

-mantiqiy tafakkur darajasi AKTdanda foydalanish faolligiga bevosita bog'liq.

Bu esa pedagog tayyorlov jarayonida axborot muhiti vositalaridan majburiy foydalanish zarurligini tasdiqlaydi.

XULOSA

Bo'lajak pedagoglarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish axborot muhitidan samarali foydalanishni talab etadi. Raqamli vositalar orqali tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarda:

- tahliliy fikrlashni;
- muammoli vaziyatlarni yechish ko'nikmasini;
- mantiqiy operatsiyalarni ongli bajarishni shakllantiradi.

Demak, raqamli ta'lim resurslari pedagogik jarayonda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning kuchli vositasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zayniyev Z., Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2020.
2. Xoshimov K., Pedagogik kompetensiya va kasbiy rivojlanish. – Toshkent, 2021.
3. Anderson L., Bloom taksonomiyasi zamonaviy talqini. – 2019.
4. UNESCO. Digital Literacy Framework. – 2020.
5. OECD. Future of Education and Skills. – 2019.